

O'ZLASHMALARNING LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

Otabek Shukurov

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

filologiya fanlari doktori, professor

(Qarshi, O'zbekiston)

otabekshukurov1@mail.ru (+998914692672)

Gulsevar Xamidova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish

(o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zlashma so'zlarning leksikografik tavsifi va ularni o'zbek tili leksikasiga kiritish masalalari tahlil qilingan. Yangi o'zlashmalarni o'quv lug'atlariga xalqaro leksikografik tajribalar asosida kiritish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, o'zlashmalar tilning leksik boyligini kengaytiruvchi manba sifatida talqin qilingan.

ANNOTATION

The article analyzes the lexicographic description of loanwords and their integration into the Uzbek language lexicon. Recommendations are provided for incorporating new loanwords into educational dictionaries based on international lexicographic practices. Additionally, loanwords are interpreted as a source for enriching the lexical wealth of the language.

Kalit so'zlar: *o'zlashma so'zlar, leksika, etimologik ma'no, genetik ma'no, semantik, tushuncha*

Ключевые слова: *заимствования, лексика, этимологическое значение, генетическое значение, семантический, понятие*

Keywords: *borrowings, lexis, etymological meaning, genetic meaning, semantic, concept*

Hozirgi tilshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri o'zlashma so'zlar va ularning tildagi rolini o'rganishdir. O'zlashmalar har qanday tilning rivojlanishida muhim o'rin tutadi, chunki ular madaniy va ijtimoiy aloqalarni aks ettiruvchi muhim leksik qatlam hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda o'zlashmalarni tadqiq qilish jarayoni bir nechta ilmiy yo'nalishlar, jumladan, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya va antroposentrik tilshunoslik nuqtai nazaridan olib borilmoqda.

O'zlashma so'zlar tillararo ta'sirning eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Ular turli tillar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni aks ettiradi.

Lingvistik nuqtai nazardan o'zlashmalar bir nechta toifaga ajratiladi. Masalan, fonetik moslashish asosidagi o'zlashmalar manba tildagi so'z o'zbek tilining fonetik tizimiga moslashtiriladi. Semantik o'zlashmalar so'zning ma'nosi o'zgarib, yangi kontekstda ishlatiladi. J.Hamdammovning "Rus tilidan o'zbek tiliga so'z qabul qilish tarixidan (XIX asrning ikkinchi yarmi) mavzusidagi dissertatsiyasi (1963) ham shu sohadagi maxsus kuzatishlardan. U ishida ruscha o'zlashmalarning o'zbek tiliga fonetik, grammatik va semantik jihatdan moslashishi masalalariga e'tibor qaratgan¹.

Jahon tilshunosligi tajribasida leksik-semantik tahlil bir nechta asosiy usullar orqali amalga oshiriladi:

komponent tahlilda o'zlashma so'zning ma'no tarkibi tahlil qilinadi;

assotsiatsiya usulda o'zlashmalarning tildagi aloqadorlik tarmog'i o'rganiladi;

korpus tahlilida o'zlashmalarning ommabopligi va faoliyati korpus lingvistika yordamida tahlil qilinadi.

O'zlashmalarning lug'atlarda to'g'ri aks ettirilishi ularning tildagi faoliyatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Leksikografiyada yangi o'zlashmalarni to'g'ri tavsiflash uchun bir nechta usullar qo'llaniladi:

izohli lug'atlarda o'zlashmalarning aniq ma'nosi va ishlatish konteksti beriladi;

etimologik lug'atlarda so'zning kelib chiqishi, uning manba tilidagi tarixi va semantik rivojlanishi yoritiladi.

Akademik A.Hojiyev o'zining "Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti" asarida asosiy e'tiborni ruscha va rus tili orqali o'zlashgan so'zlar tahliliga e'tibor qaratadi. U struktur-semantik kalka, yarim kalka terminlarini qo'llashga ehtiyoj yo'qligi, rus tilidan o'zbek tiliga birorta so'z yasovchi qo'shimcha qabul qilinmaganini aytadi, "semantik kalkalash yo'li bilan yangi ma'no hosil bo'lishi (yangi ma'no hosil qilinishi) yangi ma'no hosil qilishning eng asosiy yo'li hisoblanadi", – deya ta'kidlaydi².

Ma'lumki, o'quv lug'atlariga, bugungi kun nazaridan kelib chiqib, antroposentrik yondashuv urf bo'ldi. Bunday lug'atlar insonlar hayotida bevosita amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular til o'rgatish va kommunikativ malakalarni shakllantirish uchun mo'ljallangan.

Tadqiqotchilar o'quv lug'atchiligi uchun ta'limiy maqsadga yo'nalganlik, hajman chegaralanganlik va til o'qitishdagi funksional ahamiyatni o'quv lug'atining ustuvor belgilarini ko'rsatishadi. Shu bilan birga, lug'atning ta'lim berish, ma'lumot taqdim etish, me'yorlashtirish, tizimlashtirish va muvofiqlashtirish kabi vazifalarini ham belgilaydilar. Bu yondashuv xalqaro leksikografiyadagi zamonaviy tendensiyalarga

¹ Хамдамов Ж. Из истории русского языка в обогащение лексики узбекского языке (вторая половина XIX века): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1963. –С. 8.

² Хожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясаиши ва лексика. – Тошкент: Фан, 1988. –Б. 172.

mos keladi. Jumladan, Yevropa va Amerikada o'quv lug'atlarini ishlab chiqishda antroposentrik yondashuvdan samarali foydalanilmoqda.

Bugungi kunda o'zlashma so'zlar leksik tarkibning muhim qismini tashkil etmoqda. O'zlashma so'zlar leksikografik jihatdan umumiy lug'atlardan tashqari maxsus o'zlashma lug'atlari orqali ham tasniflanmoqda. Masalan, ingliz tilida "Oxford Advanced Learner's Dictionary" yoki rus tilida "Большой толковый словарь иностранных слов" kabi nashrlar bu yo'nalishda muhim manbalar hisoblanadi. O'zbek tilida ham bunday lug'atlarni yaratish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zlashmalarni o'quv lug'atlariga kiritish jarayoni bir necha mezonlar asosida amalga oshiriladi. Ayrim tadqiqotchilar so'zlarni turli kategoriyalarga ajratish yo'llarini belgilab beradilar. Masalan, jamiyatda so'zlarning o'zlashish sohalari, ularning grammatik va semantik xususiyatlarini inobatga olish muhimligi ta'kidlanadi. Bu yo'nalishda jahon tajribasiga murojaat qilinsa, ingliz va rus tillaridagi izohli lug'atlarda o'zlashmalar fonetik, morfologik va semantik jihatdan tasnif qilinadi.

Tilshunos M.G'ofurova esa ko'p tilli muhitda nutqiy varvarizmlar masalasini tahlil qilib, ularning og'zaki va yozma nutqqa ta'sirini tadqiq qilgan. U internatsional so'zlarning varvarizm sifatida tilda paydo bo'lishi, keyin esa umumiy leksikaga aylanishi jarayonini ko'rib chiqadi³. Bu nazariya ingliz va fransuz tillarida ham tadqiq etilgan bo'lib, Brayan Greys (Brian Grice) hamda Jan Dyubua (Jean Dubois) kabi olimlar bu borada keng ilmiy izlanishlar olib borgan.

Savdo maskanlari nomlarining o'zbek tilidagi o'zlashma so'zlar qatorida alohida o'rin tutishi esa tilning dinamik xususiyatini ko'rsatadi. Masalan, minimarket – market – supermarket – gipermarket paradigmasi semantik taraqqiyot va graduallik prinsiplari asosida shakllangan. Bu tendensiya nafaqat o'zbek, balki ko'pgina tillarda kuzatilgan. Masalan, ingliz va fransuz tillarida bu kabi leksik o'zgarishlar tovar turkumi va bozor islohotlari bilan uzviy bog'liq.

Butik so'zining manba (ingliz) til lug'atlarida quyidagi ma'nolari mavjud: 1) mo'jaz partiyada tayyorlanuvchi, shuningdek, qimmatbaho kiyim-kechak, poyabzal va zargarlik kabi buyumlar bilan savdo qiluvchi do'kon; 2) reklama agentligi turi. Bu so'z, yuqoridagilar bilan birga, *ayrim mahsulot, xizmat savdosiga ixtisoslashgan kichik moda biznesini* ifodalash uchun ham ishlatiladi. Umuman olganda, uni o'zbek tilining o'quv izohli lug'atiga quyidagicha kiritish mumkin:

BUTIK (fransuzcha *boutique* – do'kon) zamonaviy qimmatbaho tovarlar sotishga mo'ljallangan kichik do'kon. *Bu so'zni ko'pchiligimiz tushunmaymiz, ko'proq*

³ Гофурова М. Кўп тиллилик вазиятида нутқий варваризмларни қўллашнинг лингвокультурологик тадқиқи (инглиз ва ўзбек тиллари материалида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Андижон, 2021. –Б. 21.

kiborlar “tili”da aylanadi... Oddiy xalq “Butik”dan kiyinishni elitaga yaqinlashish yoki madaniyatning yuksak cho‘qqisi, deb biladi. (<https://xs.uz>)

Aytish mumkinki, o‘zlashmaning xalq tiliga yaqinlashgani, jonli so‘zlashuv tilida faollashganini xizmat ko‘rsatish obyekti va servis faoliyati nomi – neym kabilar misolida ham kuzatish mumkin: *meat boutique* (zamonaviy go‘sh t do‘koni), *yuridik butik*, *butik-atelye*, *butik glamour*, *канцелярский бытук* (kanselyariya do‘koni), *butik-otel/butik mehmonxona*, *butik man* (erkaklar do‘koni).

Bugungi globalizatsiya jarayonlari natijasida o‘zbek tilida yangi o‘zlashmalar ko‘paymoqda. Bunday so‘zlarning tizimli izohlanishi va ularni lug‘atga kiritish tilshunoslikdagi xalqaro tajribalar asosida amalga oshirilishi lozim. Shu bois, o‘quv izohli lug‘atlar tayyorlashda xorijiy tajriba va metodologik yondashuvlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yangi o‘zlashmalarni o‘quv lug‘atlariga kiritishda ularning tildagi o‘rni va funksiyasi aniqlashtirilishi, hamda ularning tilshunoslik nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilinishi zarur. Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik yondashuv asosida leksikografik ish olib borish bu borada dolzarb ahamiyatga ega. Bunday yondashuv xalqaro miqyosda ham qo‘llanib, o‘zbek tilining leksik boyligini yanada kengroq tadqiq qilish imkonini beradi. Shu sababli, kelgusida o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning o‘quv lug‘atlarini yaratishda xalqaro ilmiy tajribalardan foydalanish va ularni amaliy natijalarga tatbiq etish juda muhim vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘zlashmalar tilning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular tillararo aloqalarni mustahkamlab, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Leksik-semantik tahlil va leksikografik yondashuvlar asosida o‘zlashmalarni to‘g‘ri tasniflash va lug‘atlarga kiritish ularning o‘zbek tilida mustahkam o‘rin egallashida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хамдамов Ж. Из истории русского языка в обогащение лексики узбекского языке (вторая половина XIX века): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1963. –С. 34.
2. Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясаилиши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1988. 200 бет.
3. Гофурова М. Кўп тиллилик вазиятида нуткий варваризмларни қўллашнинг лингвокультурологик тадқиқи (инглиз ва ўзбек тиллари материалида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Андижон, 2021. 24 бет.